



QO'G'IRCHOQ TEATR TARIXIGA NAZAR

Najmiddinova Sarvara Samariddinovna.

Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining
Farg'ona Mintaqaviy filialining Qo'girchoq teatr aktyorligi
2-kurs talabalari*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixga boy bo'lgan, "Qo'g'irchoq teatri"ning paydo bo'lishi va O'zbekistonga 20-asrdan boshlab ushbu soha yanada rivojlanganligi bilan birgalikda, yurtimizda professor S.V Obrazov "Qo'g'irchoq teatr" yo'nalishida ta'lim bera boshlagani haqidagi ma'lumotlarni yoritib berishga harakat qildim.

Kalit so'zlar: Qo'g'irchoq, Obrazov, san'at, teatr, Chodirjamol, Chodirjamol, Fonus-xayol, Qo'g'irchoqboz.

Kirish. Qo'g'irchoq teatr san'ati qadimiyligi bilan va aktyor parda ortidan yoki chodir ichidan personajning ruhiy holatini va kechinmalarini qo'g'irchoq orqali harakatga keltirib, namoyon etishi bilan ajralib turadi. Ushbu sohani tarixiga nazar tashlasak, paydo bo'la boshlanishi marosimlarga borib taqaladi. Shuningdek, 6-asrdanoq bugungi kunga qadar saqlanib qolingan. G'arb tarixshunoslari ya'ni Geradot va Ksenafont olimlarining asarlarida ham xalq orasida Qo'g'irchoqbozlik tomoshalari qo'yilganligi haqida ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Sharqda ham xususan, O'rta Osiyoda ko'ngil ochar bu tomoshalar San'at va madaniyatimizga uyg'unlik baxsh etgan.

K.S.Stanslavskiy aytganidek, "Sahnaviy xatti-harakat mazmunli, mantiqli, izchil va hayotiy bo'lishi kerak". Demak, Qo'g'irchoq teatrida yoki tomoshalarda ham aktyor jismoniy xatti-harakat qiladi, lekin ichki kechinmalarni qo'g'irchoq orqali namoyon etadi. Bu insonning fe'l-atvori qonuni bo'yicha emas, ya'ni qo'g'irchoq san'atining talabiga ko'ra amalga oshiriladi. Bu talab asosida, azal-azaldan qo'g'irchoqbozlik tomoshalari qo'yilib kelinadi.

Asosiy qism

Yurtimizda 15-asrlarda Movarounnahr va Xurosonda qo'g'irchoq teatr tomoshalari rivojlangan. Shuningdek, Qo'g'irchoq o'ynatilishi va yasalishi ham turlicha bo'ladi. Qadimdan qo'g'irchoqbozlik san'atini "Chodirjamol", "Chodirxayol", "Fonus-xayol" turlari mavjud. "Chodirjamol" bu qo'lga kiyilganidan



so'ng barmoqlar orqali harakatga keltiradi va bunda aktyor bir vaqtning o'zida bir nechta qo'g'irchoqni o'ynata oladi, ya'ni, yasalgan xaltaning ichidan qo'girchoq qahramonlari o'ynatiladi. Personajlar jismiga mos gapirishi uchun qo'g'irchoqboz tilining tagiga qo'yilgan safil degan moslagich orqali ovozda o'tkir chiyildoq tovush yuzaga keladi. Asosan, ushbu tur xalq tomoshalarida, milliy marosimlarda namoyish etilgan. "Chodirjamol" teatrini ustoz olim Muxsin Qodirov shunday ta'riflaydilar - "jamol" so'zi bir tomondan, tamoshaning yorug'likda kunduzi ko'rsatilishiga, ikkinchidan, tamoshada xayol, afsona emas, balki kundalik hayotdan olingan real, tanish voqealar tasvirlanishi.

"Chodir" so'zi esa sahna, ham teatr ma'nosini beradi. Demak,

"Chodirjamol" bu kishilarning kundalik hayotidan olingan voqealarni qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar yordamida aks ettiruvchi o'ziga xos teatrdir." ¹

"Chodirxayol" san'at turi nisbatan murakkab va mukammal tur bo'lib, ip yordamida harakatga keladi, ya'ni, iplar bilan qo'girchoqni boshi, qo'llari, oyoqlari bog'lanadi va iplar cho'pga qotirillgan holatda, cho'p orqali boshqariladi. Tarixdan ma'lumki, bu tur professional hisoblanib, avloddan-avlodga o'tish orqali o'zlashtirilgan.

O'zbek xalqining qo'g'irchoq turi bo'lgan, "Fonus-xayol" turi 14-asrdan yurtimizda taraqqiy eta boshlagan. Ushbu tur tomoshalari kechqurun namoyish etilgan, chunki, aktyorlar oq parda ortidan yoritib turgan sha'm va fonuslarning yorug'ligi evaziga qo'g'irchoqlarni aksini oq pardaga tushurish orqali qo'g'irchoqlarni o'ynatgan. Ko'pincha, "Fonus-xayol" turi saroylarda namoyish etilgan.

Yurtimizda azal azaldan xalq tomoshalarida va bayramlarda tashkil etiladigan va namoyish etilgan bir necha ko'rinishlar mavjud. Misol uchun "Polvon Kachal" sarguzashtlari" piyesasidagi voqealar asosan xalq qahramoniga aylangan. Polvon Kachalning boshidan kechirgan kulgili, qiziqarli va bir-birini to'ldirib, izohlab kelgan qarama-qarshi voqealar aks ettirilgan. Bu obrazni olim M. Qodirov shunday tahlil qiladi: "Polvon Kachal bir tomondan biroz yengiltak, maishatparast, urishqoq, hovliqma, yalqov, boqi-beg'am, maqtanchoq, kamsuqum - Ikkinchi tomondan

¹ Qodirov M. X. Xalq qo'girchoq teatri 1972- yil, 44 bet



qaraganda Polvon Kachal sodda, sho'x, beg'ubor, shod-u beg'am, qo'rqmas, jasur, to'g'rilik kurashchisidir. U qo'shiqni, o' yin-kulguni yashi ko'radi.²

O'zbek qo'g'irchoq teatr san'atining jahondagi birinchi tadqiqotchisi Aleksandrovich Komorov lekin, grafik olimi Rushavs Koretno hisoblanadi. Qo'g'irchoqbozlik tarixi ustida izlanishlar olib borib, qo'g'irchoqlar kolleksiyasini to'plagan olim A. Komorovning bir nechta yozib olgan pyesalarini qo'g'irchoq teatr san'atini profesionalizim darajasida o'rganayotganimizda manbalarda uchratishimiz mumkin. Shuningdek, bir nechta Qo'g'irchoq teatr san'atini rivojlantirgan qo'g'irchoqboz mutaxassislar mavjud. Masalan, Sergey Obrazsov (1901-yil 5-iyulda tug'ilgan) — afsonaviy aktyor va rejissyor, Davlat akademik markaziy qo'g'irchoq teatri asoschisi. U sahnada qo'g'irchoqlarlarni harakatga keltirgan, teatrga rejissyorlik qilgan, hujjatli filmlarda, rassomlar ijodiy laboratoriyasida ishlagan, ijod psixologiyasi, teatr tarixi, dunyoning ijtimoiy muammolari haqida kitoblar yozgan. U ko'p yillar davomida "UNIMA" (Union international de la marionette) Xalqaro qo'g'irchoqbozlar ittifoqiga rahbarlik qilgan, ya'ni Moskvada birinchilardan bo'lib qo'g'irchoq teatrlarini tashkil etgan va qo'g'irchoq teatriga estrada janrini olib kirgan. Hattoki, u 20-asrda dunyoga yangilik qilib, o'zining «Необычный концерт» nomli tomoshasi bilan ko'plab mamalakatlarga tashrif buyurib, hattoki, bu tomosha "Gennes"lar kitobiga ham kiritilgan. Bugungi kunda esa uning shogirdlari dunyoning ko'plab mamlakat va shaharlarida ijod qilib kelmoqda. 20-asrda Qo'g'irchoqbozlik san'atini davom ettirgan, O'zbek qo'g'irchoq teatri san'atida Vladimir Sergeevich Logelsenning ijodiy faoliyati ham beqiyos. O'zbekistonda "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasiga asos solgan, 1995 yilgacha A.N.Ostrovskiy nomidagi texnika institutida faoliyat yuritib, u professor unvonini olgan, Andijon shahridagi "Lola" qo'g'irchoq teatrida (1973-1975) yillarda rahbarlik qilgan. Ayni paytda shogirdlari mehnat qilib, ustozining ijodiy merosini davom ettirmoqda.

Yurtimizda yana bir qo'g'irchoq teatr san'ati sohasiga rang-baranglik olib kiritgan artist Tohir Mahramov "Toshkent davlat qo'g'irchoq teatrida" aktyor va rejissor bo'lib faoliyat olib borgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Iso Yoqubov ham qariyb 20 yil "Respublika Qo'g'irchoq teatrida" bosh rejissor bo'lib ijod qilgan. Uning bir nechta sahnalashtirgan spektaklari xaqning yuragidan joy olgan, "Farhod va Shirin", "Zulfiya" va boshqalar. Ushbu ijod namunalarning barchasi biz yoshlarga tarixiy meros bo'lib kelmoqda.

² Qodirov. M. Tomosha san'ati o'z tushidan lavhalar. T. Fan 1993- yil. 163- bet



Xulosa va munozara

Xulosa qilib aytganda, “ Qo’g’irchoq teatr san’ati” o’zining eng ko’p tarixiga va ko’plab tadqiqotchilariga boy soha hisoblanadi. Ushbu sohani tanlagan barcha yoshlar, qo’g’irchoqbozlik sohasini paydo bo’lishi haqida ijodiy izlanishlar orqali tadqiqotlar amalga oshirishi, o’z ustida izlanishi kerak. Yuqorida yozib o’tganimday biz yoshlar uchun ko’plab ijodkorlarning ijod yo’li maktab bo’lib xizmat qilmoqda. Bu maktabdan ilm olib, o’z ustida ishlagan ijodkor mukammal aktyor, rejissor yoki qo’g’irchoq ustasi bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Qodirov M. X. Xalq qo'girchoq teatri 1972- yil, 44 bet
- 2.Qodirov. M. Tomosha san' ati o' tmishdan lavhalar. T. Fan 1993- yil. 163- bet
3. Ashurova M. Aktyorlik mahorati. Toshkent 2021
4. Юсупова В.И. КУКЛОВОЖДЕНИЕ.
РАБОТА С ПЕРЧАТОЧНОЙ КУКЛОЙ. Ташкент 2020.